

O'ZBEK VA XITOIY MADANIYATIGA XOS VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TURLARINING TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-117-121>

Safarova U.,

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti 3- kurs talabasi,
Toshkent, O'zbekiston, umidas828@gmail.com*

Ilmiy rahbar: Zebo Shamsiddinova

"Sharq tillari kafedrasi "o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va xitoy madaniyatiga xos verbal va nonverbal muloqot turlari ilmiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Har bir madaniyat vakillari tomonidan qo'llaniladigan harakat, so'zlar, imo-ishoralar va yuz ifodalari o'zining semantik ma'nosi, ijtimoiy funksiyasi hamda madaniy va tarixiy kelib chiqishi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: verbal muloqot, nonverbal muloqot, imo-ishoralar, jimlik, yuz ifodalari, madaniyatlararo muloqot, hurmat

АНАЛИЗ ВЕРБАЛЬНЫХ И НЕВЕРБАЛЬНЫХ ВИДОВ КОММУНИКАЦИИ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ УЗБЕКСКОЙ И КИТАЙСКОЙ КУЛЬТУР

Аннотация: В статье анализируются вербальные и невербальные виды коммуникации, характерные для узбекской и китайской культур, на основе научно-лингвистического подхода. Действия, слова, жесты и мимика, используемые представителями каждой культуры, рассматриваются с точки зрения их семантического значения, социальной функции, а также культурного и исторического происхождения.

Ключевые слова: вербальное общение, невербальное общение, жесты, молчание, выражение лица, межкультурная коммуникация, уважение.

ANALYSIS OF VERBAL AND NONVERBAL TYPES OF COMMUNICATION CHARACTERISTIC OF UZBEK AND CHINESE CULTURES

Abstract: The article analyzes the verbal and nonverbal types of communication characteristic of Uzbek and Chinese cultures, based on a scientific-linguistic approach. The actions, words, gestures, and facial expressions used by

representatives of each culture are presented in terms of their semantic meaning, social function, as well as cultural and historical background.

Keywords: *verbal communication, nonverbal communication, gestures, silence, facial expressions, intercultural communication, respect*

KIRISH

Bugungi globalizatsiya davrida xalqaro munosabatlar kundan kunga rivojlanib, davlatlar o'rtasida kommunikatsiyaning o'rni va roli kengaymoqda. Hozirgi paytda til o'rganish va bilishning o'zi yetarli emas, chunki muloqotning aniq mazmunini hamda noverbal signallarni boshqacha izohlash ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.¹ Shu jihatdan, o'zbek va xitoy xalqlari yuqori lingvistik muhitli jamiyatlar sifatida suhbat jarayonining asosiy qismi ijtimoiy kontekstga chambarchas bog'liq va noverbal signallar va imor-ishoralar muloqot bilan uzviy bog'langan. Mashhur psixolog Albert Mehrabian insonning his tuyg'ular va munosabatlarini bildirishda verbal bo'lmagan signallarning ahamiyatini ta'kidlagan holda o'zining noverbal muloqot modelini tuzdi. Unga ko'ra o'rtacha bir inson suhbatda 55% jismoniy harakat va signallardan, 38% ovozidan va 7% so'zlardan foydalanilishi aniqlangan.²

O'zbek va xitoy madaniyatining muloqot ko'nikmalarini o'rganish, har bir aloqa turining ijtimoiy funksiyalari va kelib chiqishini tahlil qilish, davlatlararo muloqotdagi farq va o'xshashliklarni tushunishga ko'maklashadi. Ushbu maqolada verbal va noverbal kommunikatsiya turlari va ularning pragmatik tomonlari, shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi madaniy tafovutlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1. O'zbek madaniyatida verbal muloqot

O'zbek madaniyatida muloqot davomida ochiqlik, samimiylik va ko'pincha shaxsiy fikr va xislarini to'g'ridan to'g'ri ifodalash muhim ahamiyatga ega. Verbal muloqot bir necha asosiy shakllardan iborat hisoblanadi.

1.1. Salomlashuv va murojaat shakllari

O'zbeklarda salomlashuv madaniyati juda chuqur ma'noga ega bo'lib, assalomu alaykum kattalarga hurmat, ehtirom ma'nosida ishlatiladi. Bundan tashqari ushbu salomlashuv rasmiy tadbirlarda ijtimoiy birlikni anglatadi.

1.2. Ochiq va erkin fikr bildirish

¹ Hall, E.T. (1976). *Beyond Culture*. [online] Available at: https://monoskop.org/images/6/60/Hall_Edward_T_Beyond_Culture.pdf.

² Mehrabian's 7-38-55 Communication Model

<https://people-shift.com/articles/mehrabians-7-38-55-communication-model/>

O'zbek madaniyatida fikr va tanqidlar tog'ridan to'g'ri suhbatdoshga yetkazilishi suhbatning ochiq va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, qaror qabul qilish vaqtida o'z shaxsiy fikrini erkin bildiradi: “Men shu tanlovni ma’qul ko’raman yoki “ Bu fikr menga to’g’ri kelmadi”

1.3. Rad javoblarini yumshatish

Rasmiy muqotlarda ,shuningdek, yoshi kattalarga murojaatlarda inkor etish biroz muloyim ko'rinishda yetkaziladi: “Birozdan so’ng ko’rib chiqamiz” yoki “Hal etish qiyin bo’lishi mumkin”. Ushbu holatlarda rad etish bilan birgalikda hurmat ham saqlanadi.

2. Xitoy madaniyatida verbal muloqot

Xitoy verbal muloqoti Konfutsiy falsafasidagi “Li” (礼 — odob) va “He” (和 — uyg'unlik) tushunchalari bilan belgilanadi. Nutqning vazifasi nafaqat ma'lumot uzatish, balki ijtimoiy uyg'unlikni saqlash va suhbatdoshni hurmat qilishdir (Confucius, Analects).

Xitoy madaniyatida suhbat bilvosita, ehtiyotkorlik va ijtimoiy uyg'unlikni birlashtirishga yo'naltirilgan.

2.1. Murojaat shakllari va iyerarxiya

Xitoy madaniyatida ham xuddi o'zbek madaniyatida bo'lgani singari kattalarga murojaat masalan laoshi va jingli ga uning jamiyatdagi o'rni va yoshiga nisbatan hurmatni bildiradi. Shuningdek, rasmiy davralarda suhbat muloyim ko'rinishda bo'ladi.³

2.2. Xitoy madaniyatida muloqot nafaqat informatsiya ulashadi, balki birlikni saqlash hamda face-saving ⁴ strategiyasini amalda qo'llaydi. Shuning uchun, bilvosita ifoda va muloyim so'zlar muloqot jarayonida ko'p qo'llaniladi.⁵

3. O'zbek madaniyatida noverbal muloqot shakllari

O'zbek madaniyatida noverbal signallar ko'p qo'llanadi va muloqotning mazmuni va ochiqligini oshiradi.

3.1. Qo'l va tana harakatlari

O'zbek madaniyatida qo'lni ko'krakka qo'yib salomlashish va mehmonni kutib olish unga nisbatana hurmat va ehtiromni ifodalaydi. Shuningdek, tanishuv va salomlashish jarayonida qo'lni uzoqroq siqib turish ikkinchi tarafga nisbatan iliqlik va o'zaro kelishuvni bildiradi va ko'pincha savdo va kelishuv jarayonlarida ishlatiladi.

3.2. Ko'z bilan aloqa

³ Apa.org. (2024). APA PsycNet. [online] Available at: <https://psycnet.apa.org/record/1998-06342-000>.

⁴ <https://ivypanada.com/essays/face-saving/>

⁵ Politeness Theory (Brown & Levinson, 1987) <https://www.scribd.com/document/954053154/Politeness-Theory-Brown-Levinson-1987-Google-Docs>

O'zbek madaniyatida suhbatdoshning ko'ziga to'g'ri va uzluksiz qarab gapirish, to'g'riso'zlik va unga nisbatan e'tiborni anglatadi. Ammo yoshi kattalarga nisbatan ko'ziga tik holda gapirish hurmatsizlik yoki norozilik belgisi sifatida talqin qilinadi.

4. Xitoy madaniyatida noverbal muloqot

4.1. Bosh va tana harakatlari

Xitoy madaniyatida boshni yengil egib qo'yish o'zaro hurmatni bildiradi. O'zbek madaniyatidan farqli ravishda xitoyliklarda qo'l harakatlaridan kamroq foydalanish o'z o'zini boshqarish va nazorat qilish ma'nolarini ifodalaydi.⁶

4.2. Ko'z bilan aloqa

Xitoyliklarda qisqa, lekin samimiy ko'z aloqasi muloqot qiluvchilar orasida hurmat va kamtarlik belgisi sifatida ifodalanadi. Suhbatdoshning ko'ziga uzoq qarash unga nisbatan bosim yoki tajovuz belgisi bo'lishi mumkin.

4.3. Sukut, vaqt va yuz ifodasi

Muloqot jarayonida sukut saqlash ikki madaniyatda ham donolik, mulohaza qilish kabi ma'nolarni bildiradi.

Vaqt qat'iyligi borasida esa biroz farqlar mavjud. Masalan, xitoyliklar uchrashuv va tadbirlarga kechikmaslikni yoqtiradilar, ammo o'zbeklar orasida punktuallik qat'iy amal qilinadigan qoida emas.

Tabassum va yuz ifodalari me'yorida va ehtiyotkorona ishlatiladi, ortiqcha his tuyg'ular suhbatdoshga namoyish qilinmaydi.

5. Madaniyatlararo farqlar

O'zbek madaniyatining ochiq va samimiy muloqotlari xitoyliklar tomonidan haddan tashqari ochiqlik ko'rinishida talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, xitoyliklarning sukut saqlashi va yumshoq ko'rinishdagi rad javoblari o'zbeklar tomonidan sovuqqonlik deb qaraalishi mumkin.

Shu sababli har ikki davlat vakillari muloqot kodlarini yuqori darajada tushunishi lozim. Face-saving strategiyasi va hurmat belgilarini tushunish muloqot samaradorligini oshiradi.

Xulosa

O'zbek madaniyatida muloqot asosan ochiqlik, samimiylik hamda his tuyg'ularga integratsiyalashgan bo'lsa, Xitoy madaniyatiga ko'ra yumshoqlik, sukut saqlash, suhbatdoshga haddan tashqari emotsiyalarni bildirmaslik afzal ko'riladi. Madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni samarali yo'lga qo'yish uchun ushbu tafovutlarni chuqur anglash va kommunikatsiya vositalarini moslashtirish muhim.

⁶ <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3058163>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987. 152 p.
2. Gao G., Ting-Toomey S. Communicating Effectively with the Chinese. Sage Publications, 1998. 220 p.
3. Hall E.T. Beyond Culture. New York: Anchor Books, 1976. 240 p.
4. 4. Islomov B. Uzbek Folk Customs and Communication Culture. Tashkent, 2018. 180 p.
5. Karimov A. Uzbek Speech Culture. Tashkent, 2015. 145 p.
6. Matsumoto D. Culture and Nonverbal Behavior. APA, 2006. 175 p.
7. M.Saidxonov “Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi”3b
8. Z.Shamsiddinova PECULIARITIES OF EXPRESSING SYNTAGMATIC CONSTRUCTIONS WITH THE HELP OF NOUNS, PRONOUNS AND VERBS.Tashkent,2023.43p